# O'QUVCHILARGA CHET TILINI O'RGATISHDA SAMARALI MULOQOT TEXNIKASIGA VA INNAVATSION TEXNALOGIYALARGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

***Dehqanova Guljahon Ahmadjanovna***
*Namangan Davlat Pedagogika Instituti*
*O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Xorijiy tillarni o'rganishda muloqot texnikasiga va innvatsion texnalogiyalarga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari juda muhim ahamiyatga ega, chunki til o'rganish zamon talabi. Chet tilini o'rganishda o'quvchilarga fanga bo'lgan muhabbatini yanada kuchaytirish juda muhim hisoblanadi, hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan texnalogiyalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Chet tili, muloqot texnikasi,innavatsion texnalogiyalar, texnalogik vositalar, usullar, metodlar.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ЭФФЕКТИВНЫМ КОММУНИКАТИВНЫМ ПРИЕМАМ И ИННОВАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ.

***Аннотафция:*** *Научно-методические аспекты подготовки к коммуникативным приемам и инновационным технологиям изучения иностранных языков очень важны, ведь изучение языка – это потребность времени. При изучении иностранного языка очень важно укреплять любовь учащихся к науке, освещаются технологии, необходимые для их обучения.*

***Ключевые слова:*** Иностранный язык, техника общения, инновационные технологии, технологические средства, методы.

# IMPROVING THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING STUDENTS FOR EFFECTIVE COMMUNICATION TECHNIQUES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.

***Abstract:*** *Scientific-methodical aspects of preparation for communication techniques and innovative technologies in learning foreign languages are very important, because language learning is the need of the hour. In learning a foreign*

*language, it is very important to strengthen students' love for science, and the technologies necessary for their learning are covered.*

***Key words:*** *Foreign language, communication techniques, innovative technologies, technological tools, methods.*

## KIRISH

*Bugungi kunda chet tilini o'rganish tabora takomillashib bormoqda, rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir jabhalarda taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda juda katta o'zgarishlar,va yutuqlarga erishmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion texnalogiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.*

*Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida muloqot texnikasidan foydalanish juda samarali usullardan biri hisoblanadi, va qolaversa texnalogiyalar orqali ham darsni mazmunli tashkil e'tish va chet tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Globallashuv jarayonida muloqot texnikasi juda muhim hisoblanadi.*

*Ta'lim jarayoniga zamonaviy-kammunikatsion texnalogiyalarni olib kirish ulardan to'g'ri va maqsadli, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchilarda chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish va oshirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limda muloqat texnikasiga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlarini takomillashtiradi, va innavatsion texnalogiyalardan foydalanishga ta'lab ortadi va imkoniyat paydo bo'ladi.*

*Oxirgi yillarda chet tilini o'rganayotganlar soni keski oshdi. Texnika rivoji tufayl, zamon bilan hamnafas inson kamida 3 ta tilni o'rta muloqat darjasida bilishi talab etila boshladi. Bunga ota-onalar ham farzandlarini chet tilariga qo'shimcha to'garaklarga imkon qadar erta berishni xoxlashayapti.*

Chet tilini o'rganishda esa faqatgina so'zlarni yod olish, grammatik ma'lumotlarni o'rganish bilan amalga oshmaydi. Shular bilan birgalikda ta'lim jarayoniga yangiliklar olib kirish va ularni muloqotda samarali foydalanish va tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligin oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli muloqotli baxslar, harakatli o'yinlar va qiziqarli savol savoblardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning guruhlarga bo'lish yoki juft bo'lib ishlashlari orqali ham tilga bo'lgan ko'nikmani ortishiga hamda kommunikativ aloqa qilishlari uchun ham yordam beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi taraqqiyot jarayonida chet tili darslarida muloqot texnikasidan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati obyektiv ravishda ochib berdi. Taraqqiyot jarayonida amaliy bilimlarini tahlil qilish va sintez usullaridan foydalangan. Shatilov

taksonomiyasini o'qitish bosqichlari innovatsion g'oyalardan va texnalogiyalardan foydalangan holda, muloqot texnikasini ketma ketlikda o'rganildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Albatta bu borada o'qituvchi pedagogning o'rni yetarlicha ahamiyatga ega hisoblandi.Ularning asosoy vazifasi til o'rganuvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishdir.Buning uchun o'z navbatida o'qiotuvchi darsni to'g'ri tashkil eta olishi, darsda rel va hayoliy xorijiy til muhitini yarata olishi, rollardan foydalanishi,turli motivatsion o'yinlar, munozaralar, savol-javoblar tshkil eta olishi zarur.Darsda o'quvchilarning muloqot qilishlari uchun yani  so'z boyligini oshirish uchun Shatilovning 3 taksonimiyasidan foydalanilsa yangi o'rganuvchi uchun yaxshi samara beradi.

1. Guruh bilan birga jo'r bo'lib takrorlash
2. Juft bo'lib muloqot texnikasini yaratish
3. Individual bo'lib yani o'rganuvchi yakka o'zi aytadi

Bu metod juda foydali va samarali usul hisoblanadi, bu orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarga yektazib berishida eng muhim metodlardan hisoblanadi.

Chet tilini muloqot texnikasida koplab o'yinlar bilan bog'lasak ham bo'ladi. Misol uchun: O'qituvchi rasmlar va so'zlarni partga yoyib qo'yiladi, o'quvchilar navbatma navbat doskaga chiqib rasmlarni olib rasmni ingliz tilida tasvirlab beradi va rasmga mos so'zni topib qutiga joylaydi, bu o'yin orqali barcha o'quvchilarni darsga jalb etish va fanga qiziqishlarini oshiriadi. O'tilgan mavzularni takrorlash va uni mustahkamlash ko'zda tutiladi

1-o'quvchilarda talaffuz xato bo'lmasligi uchun o'quvchilar bilan birga talaffuz qilishadi.

2-juft bo'lib ishlashi undaydi bu orqali bir biriga bo'lgan munosabati va do'stlik hissi paydo bo'ladi.

3-etapda esa o'zini o'zi baxolashi mumkin va o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortib boradi va fanga qiziqib boradi.

Chet tili fanini o'rganishda oldimizga katta maqsad sari 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR va IELTS) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)

bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir.

Chet tilini o'rgatishda darslarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– "Muammoli vaziyatni hal e'tish" (Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun maqolni  boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

– "Aqliy hujum" (Brainstorming) o'tilgan darsnimustahkamlaydi va takrorlaydi shu bilan birga darsni samaradorligini oshirishda yordam beradi;

– "Darsni ochib beruvchi mashqlar" ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish o'yin, qo'shiqlar bilan boyitish.

– " Bir birini baxolash" (Peer correction) usuli o'quvchilarning og'zaki muloqot texnikasiga oshishiga yordam beradi, xa bir o'quvchi o'z xatosini bilib oladi, va nutqini o'stirishda yordam beradi;

– "O'zini o'zi boshqarish" usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid tarqatmalardan foydalanish lozim.

Darslarni mazmunli tashkil etish uchun darsda ingliz tili muhitini yaratish bu eng muhimi hisoblanadi.

**XULOSA**

Tilga e'tibor elga e'tibor deb bejizga aytilmagan, agar chet tilini o'rgansa dunyo kezishi mumkin. Takidlab o'tganimdek, har bir fanda  texnalogiya o'ziga xos afzallik

jihatlari bor. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, o'quvchining ta'lim jarayoniga qiziqish bilan qarashlari ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion usullardan foydalanish va qo'llash natijasida o'quvchilarning nutqi ravon bo'lishi, dunyoqarashi kengayishi, ingliz tilidagi savollarga tez va tog'ri javob berish qobilyati rivojlanishi va qolaversa muloqat texnikasini oshishiga va qobilyati rivojlanadi. Bunday usullar orqali o'quvchilarda o'z bilimlariga ishtiyoq uyg'otishi turgan gap. O'quvchilar darslarga puxta tayyorgarlik ko'rishiga intilishadi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga ustuvor rejalar qo'ygan yani yetuk shaxsni tarbiyashni, o'z fikrini erkin bayon eta oladigan barkamol shaxsni tarbiyashni o'z oldiga reja qilib qo'yar ekan, biz o'qituvchilar innovatsion texnalogiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada darslarni samarali tashkil etishni o'z oldimizga qo'ygan bo'lamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI : (REFERENCES)**

1. Azizova Fotimakhon S. "The teaching of proverbs and sayings using information technology in the lifelong education system" Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, vol. 8 [eng], 2010, pp. 480-481.
2. Buranov D. B. Principles of typological inventory of languages. ‖ Sat scientific labor Tashkent State University.- Tashkent, 1988.

3. Bobajonova Mavjuda.International Journal of Formal Education.ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe
4. Бобажонова М. Т. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ОБОБЩЕНИЙ //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 39-45 http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2183
5. Абдулвохидов Э. Художественное выражение преемственности поколений трудах Чингиза Айтматова // "Scholar" scientific journal volume 1, issue 35, december, 2023. Scholar, 1(35), 150–160. https://doi.org/10.5281/zenodo.10442301.
6. Абдулвохидов Э. Место и значение художественной литературы в повышении эффективности деятельности учителя // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, Hosted from Barcelona, Spain, Jan. 29th 2023, https://conferencea.org
7. Абдулвохидов Э. Айтматов-публицист о педагогике // 10th-TECH-FEST-2022 International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th Jan. 2023. https://conferencea.org

8. Egamberdiyeva S. BOLALAR FOLKLORIDA BESHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 61-67. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052
9. Mamajonovna S. E. O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 13. – C. 67-73. https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375
10. Mamajonovna E. S. O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 561-564.
11. Mamajonovna E. S. UMUMTURKIY TILLAR ALLALARIDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 46-50. http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2184
12. Dehqanva Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344
13. Dehqanova G. A., Polvanova M. F. NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 159-164.https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544
14. Dehqanva Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344
15. Tojiddinovna N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1099-1101. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484
16. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi (дата обращения: 01.02.2024).
17. Xabibillayev N. "SAB'AI SAYYOR" ASARIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 57-61. http://www.tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2186
18. Komiljon o'g O. Y. et al. GENERAL CHARACTERISTICS OF AMERICAN ROMANTICISM //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 85-91.

19.Shohsanam O. O’ZGA TILLI GURUHLARDA RUS TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O‘RNI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 15. – №. 3. – С. 76-78.
20.Madaminova M. MAKTAB O’QUVCHILARIGA INGLIZ TILIDA MATN O’QISHNI O’RGATISHNING INTERFAOL TEXNOLOGIYALARI //Ilm-fan va ta'lim. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
21.Ahmadjanovna D. G. IMPROVING THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING STUDENTS FOR EFFECTIVE COMMUNICATION TECHNIQUES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 15. – №. 3. – С. 81-88.
22.Komiljon o‘g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.

http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053